

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 83 (1144), 2024-yil 1-may, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## III Toshkent xalqaro investitsiya forumi oldidan

# KATTA SARMOYA — MUSTAHKAM HAMKORLIK

## Yirik anjuman mehmonlarni kutib olishga tayyor

Uchinchi bor o‘tkazilayotgan Toshkent xalqaro investitsiya forumi mamlakatimiz iqtisodiy hayotidagi eng nufuzli tadbirlardan biriga aylanib ulgirdi.

Ilk bor 2022-yilda tashkil etilgan xalqaro forum 56 davlatdan 2 mingdan ortiq ishtirokchi — investor va yuqori martabali mehmonlarni jamlagandi. O‘shanda forum chinakam investitsiya, iqtisodiyot bayramiga aylanib, yirik tadbirkorlik anjumani sifatida e’tirof etilgan, xorijiy ommaviy axborot vositalari e’tiboridan ham chetda qolmagandi. Forum yakunida jami 7,8 milliard dollarlik shartnoma va investitsiyaviy bitimlar paketi imzolangan, qiymati 3,5 milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha dastlabki kelishuvlarga erishilgandi.



2023-yilgi natijalar bundan kam bo‘lmadi. Yilning muhim anjumanida 70 dan ortiq davlatdan 2,5 mingga yaqin mehmon qatnashdi. Forum ishini 200 dan ziyod mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari yoritib borgani esa anjuman nufuzi xalqaro maydonda ham ortib borayotganidan dalolat berdi.

Shu bois, joriy yilda Toshkent xalqaro investitsiya forumiga yanada jiddiy va puxta tayyorgarlik ko‘rilyapti. Bu masala shaxsan davlatimiz rahbari e’tiborida, qilinayotgan ishlar hisoboti bilan ham tanishildi. Hukumatning forumga puxta tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha farmoyishi qabul qilindi. Tashkiliy ishlardan tortib,

anjumanni o‘tkazish bilan bog‘liq chora-tadbirlarning bari hisob-kitob qilingan. Turli tadbirlar rejalashtirilgan. Yurtimizdagi qator loyihalarni ishga tushirish marosimi ham kutilyapti.

Davomi 2-beta



## Dunyo nigohi

Germaniya Iqtisodiy rivojlanish va tashqi savdo federal uyushmasi ijrochi direktori Urs Unkauf “Dunyo” AAg bergan intervyusida joriy yil 2-3-may kunlari bo‘lib o‘tadigan III Toshkent xalqaro investitsiya forumining ahamiyati haqida gapirdi.

## Urs UNKAUF: “GERMANIYA KOMPANIYALARI O‘ZBEKISTONGA UZOQ MUDDATLI BARQAROR IQTISODIY SHERIK SIFATIDA QARAYDI”

— Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O‘zbekiston bilan 20-yildan ziyod vaqt mobaynida iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga hissa qo‘shib kelyapmiz. O‘zbekiston Prezidenti rahbarligida iqtisodiyotda izchil rivojlanish kuzatilmoqda. Ham hukumat, ham tadbirkorlar tashabbusi bilan ko‘plab qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda.

Odatda xalqaro investitsiya forumlarini o‘tkazishdan maqsad xorijiy sheriklarni birlashtirish, ularga iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun mavjud istiqbolarni ko‘rsatish, turli sohalarida aniq loyihalarni belgilab olishdan iborat bo‘ladi.

Xalqaro maydonda turli nizolar kuzatilayotgan bir davrda Toshkent xalqaro investitsiya forumi o‘tkazilishi muhim ahamiyatga ega. Chunki mamlakatlar va xalqlar o‘rtasida o‘zaro muloqot uchun ko‘prik vazifasini aynan iqtisodiyot o‘tadi. Uchinchi Toshkent investitsiya forumi Markaziy Osiyoning geostратегik ahamiyati jihatidan ham bu jarayonda dolzarb qadam bo‘ladi. 2-3-may kunlari bo‘lib o‘tadigan xalqaro forum butun Markaziy Osiyo mintaqasi, ayniqsa, O‘zbekistonga tom ma’nodda katta mas’uliyat yuklaydi.

Investitsiya forumi iqtisodiyot subyektlari, tadbirkorlar, uyushmalar, iqtisodiyot taraqqiyotiga ko‘maklashuvchi birlashmalarni bir joyga jamlash va mavjud imkoniyatlar haqida fikr almashish uchun juda muhim maydondir.

Ayni paytda ko‘plab nemis kompaniyalari yangi bozorlar izlash, kompaniya portfoliosini va tashqi iqtisodiy strategiyalarini diversifikatsiya qilish jarayonida turibdi. Bunda Markaziy Osiyo mintaqasiga katta e’tibor qaratilayotgani bejiz emas.

Markaziy Osiyoda O‘zbekiston eng ko‘p aholiga ega, iqtisodiyot shiddat bilan o‘sayotgan mamlakatdir. Bu haqda so‘z yuritganda, Germaniya va O‘zbekiston o‘rtasidagi savdo aloqalari muntazam kuchayib borayotganini alohida ta’kidlash joiz.

Germaniya kompaniyalari O‘zbekistonga vaqtinchalik iqtisodiy hamkor yoki boshqa mamlakatlar bilan munosabatlar rivoji uchun ko‘prik davlat sifatida emas, balki uzoq muddatli barqaror iqtisodiy sherik sifatida qaraydi.

Davomi 2-beta

## Tahlil va taqqos



# UY QURISHDAN OLDIN ISITISHNI O‘YLAYLIK

## ENERGIYATEJAMKORLIK IMORAT POYDEVORIDAN BOSHLANADI

Bobom yigitlik chog‘ida tog‘ etagida neft ko‘llarini ko‘rgan. O‘sha zamonlarda qazib olish sanoat darajasida bo‘lmagani uchun neft buloqday qaynab chiqib yotgan. Otamning navqiron chog‘ida esa benzin deyarli tekin bo‘lgan. Hatto o‘sha vaqtdagi tizim traktorchi va haydovchilar ishini sarflagan yonilg‘isiga qarab belgilagan.

Oqibatda haydovchilar tushlik chog‘ida ham texnikasini o‘chirmagan. Ishchanligini ko‘rsatish uchun isrofgarlikning turli usullarini o‘ylab topgan. Gohida yonilg‘i shunchaki yerga to‘kib yuborilgan. Bolaligidan o‘sha gurunglarni eshitib ulg‘aydim. Yigitlik chog‘imda mashinamga metan gaz to‘ldirish uchun uzoq navbatda kun o‘tkazdim. O‘g‘lim-chi?!

Biz shu tarzda tabiiy boyliklarni ishlataversak, nabiralarmizga u haqda

Davomi 3-beta

## DIL IZHORI

# VATANIMIZ SHARAFINI MUNOSIB HIMOYA QILISH MAQSADIDA YO‘LGA CHIQQIK

Shu kunlarda Qatarda bo‘lib o‘tayotgan futbol bo‘yicha Osiyo kubogi o‘yinlari hal qiluvchi pallagakirdi. Kuni kecha Prezidentimiz ushbu nufuzli musobaqada muvaffaqiyatli ishtirok etib, final yo‘llanmasi hamda shu yil yozda Parijda o‘tkaziladigan Olimpiya o‘yinlari yo‘llanmasini qo‘lga kiritgan O‘zbekiston yoshlar terma jamoasiga o‘z tabirini yo‘lladi.

Davlatimiz rahbari tabrigi yosh futbolchilarimiz va ularning murabbiylariga katta xursandchilik ulashdi hamda ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlab, navbatdagi bahslarda o‘zlariga bo‘lgan ishonch hissini oshirdi.

Buni ularning quyidagi dil so‘zlaridan ham sezish mumkin.



## Temur KAPADZE, O‘zbekiston Olimpiya terma jamoasi bosh murabbiyi:

— Assalomu alaykum, muhtaram Prezident. Tabrik uchun katta rahmat. Xalqimizning ishonchini oqlaganimizdan juda xursandmiz. Albatta, biz ham tarixiy g‘alaba bilan Sizni va xalqimizni tabriklaymiz. Chunki bu g‘alaba bizga yaratib berilayotgan sharoit va imkoniyatlar mevasidir. Biz shu imkoniyatlardan unumli foydalanib, yurtimiz bayrog‘ini yuqori ko‘targanimizdan baxtiyormiz. Oldimizda final uchrashuvi turibdi. Nasib qilsa, yurtimizga birinchi o‘rinni olib, oltin medal bilan qaytish niyatidamiz. Qolaversa, Parij Olimpiadasida ham g‘oliblikni qo‘lga kiritish maqsadimiz bor.



## Abduvohid NE‘MATOV, O‘zbekiston Olimpiya terma jamoasi a‘zosi:

— Biz, yangi O‘zbekiston farzandlari yangi tarix yaratdik — Olimpiya o‘yinlari yo‘llanmasini ilk bor qo‘lga kiritdik. Bu g‘alaba bilan, avvalo, Prezidentimizni va xalqimizni jamoamiz a‘zolari birgalikda tabriklaymiz. Darvozamizni jamoadoshlarimiz bilan birga Vatanim himoya qilgandek qo‘riqladik. Xudo xohlasa, Olimpiya o‘yinlarida ham jamoamiz darvozasi daxlsizligini saqlashga harakat qilamiz.

## Abbos FAYZULLAYEV, O‘zbekiston Olimpiya terma jamoasi a‘zosi:

— Hurmatli Prezident, bizning kamtarona mehnatimizni qadrlab yo‘llagan tabirigizni butun jamoamiz bilan eshitdik. Bu bizga qo‘shimcha motivatsiya berdi. Xudo xohlasa, finalda ham g‘alaba qozonib, yurtimizga kubok bilan qaytamiz.

## Jasur JALOLIDDINOV, O‘zbekiston Olimpiya terma jamoasi a‘zosi:

— Hurmatli Prezident, bizga yo‘llagan tabirigizni eshitib, boshimiz osmonga yetdi. Bu g‘alaba, albatta, sportga bo‘lgan e’tiboringiz mevasi. Biz yangi O‘zbekiston farzandlarimiz. Shu yurtda yaratib berilayotgan sharoitlardan unumli foydalanib, Vatanimiz sharafini munosib himoya qilish maqsadida yo‘lga chiqdik, nasib qilsa, Parijda o‘tadigan Olimpiya o‘yinlarida ham yurtimiz sha’nini ko‘klarga ko‘taramiz.









